

RESPECT FOR POETRY IN ERKIN VOHIDOV'S POETRY**Suhrob Ochilov,**

Student of Navoi University of Innovation

Scientific supervisor: f.f.f.d. (PhD) **Payzullayeva R.M.**

Annotation: in the work of Erkin Vohidov there are many poems in which the divinity of poetry and its power are described. This article analyzes the verses on this very topic and looks at the poet's creative style and symbolic expressions. Within the framework of the topic, examples are given and subtle ideas of the poem are revealed.

Keywords: nazm, Khamsa, nasr, Tengri word, Qur'an karim, miracle, poetry, creativity dardi, poet heart, Word Power, Line, punishment, Oromo, badal, evrish, folk style, rhythm.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA ASH'ORGA EHTIROM**Suhrob Ochilov,**

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) **Payzullayeva R.M.**

Annotatsiya: Erkin Vohidov ijodida she'riyatning ilohiyligi va uning qudrati ta'riflangan ko'pgina she'rlar mavjud. Ushbu maqolada aynan shu mavzudagi misralar tahlil qilinib, shoirning ijodiy uslubi va ramziy ifodalariga nazar tashlanadi. Mavzu doirasida misollar keltirilib, she'rning nozik g'oyalari ochiqdanadi.

Kalit so'zlar: nazm, Xamsa, nasr, Tengri kalomi, Qur'oni karim, mo'jiza, shoirlik, ijod dardi, shoir qalbi, so'z qudrati, tuhfa, jazo, orom, badal, evrilish, xalqchil uslub, ritm.

Adabiyot – ijodiyot olamining eng yuksak, eng nodir namunasi. Buning zamirida So'z qudrati yotadi. Dunyo esa yaralibdiki So'zdan qudratliroq qurol topmadi va topmagay qiyomatga qadar. Butun borliqni yaralishiga sabab bo'lgan vosita ham birgina so'z edi. Adabiyot sahnasida ham o'zining nazokati, inja ifodalari, inson ruhiyatiga ta'siri bilan boshqa barcha janrlar orasida yuksak va qiyossiz o'rin tutgan mo'jiza – nazm.

Hazrati Alisher Navoiy o'z "Xamsa"sining birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"ning XIV bobida nazmga latif bit ta'rif keltiradi:

“Nazm anga gulshanda ochilmog’ligi,

Nasr qaro yerga sochilmog’lig’i...”¹ [1;41]– deydi. Ya’nikim, nazm – gulshan gullari kabi nazokatli, hafif. Gulshanning gullaridagi chiroy inson ruhiyatiga halovat bag’ishlaydi, iforidan rohat topadi. Nasr esa bunday hissiy mutassirlikklarga emas.

Keying misralarida esa o’z baytiga ilohiy kitob – Qur’oni karimni misol keltirib, o’z qarashlarini isbotlaydi:

“Bo’lmasa e’joz² [2;571] maqomida nazm,

Bo’lmas edi Tengri kalomida nazm...”³ [1;41]– deydi. Bu jumlar orqali inkorsiz dalil keltirib o’tadi. Ko’rib turganimizdek, bu baytda nazmni mo’jizaga tenglab, “agar nazmda mo’jiza xususiyati bo’lmaganda Tangrining kalomida ham nazm bo’lmasdi” deya Islom dinining muqaddas kitobi bo’lgan Qur’oni karimning ham suralari nazmiy uslubda nozil qilinganiga ishora qilib o’tadi.

O’zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham she’riyat va shoirlik, uning dardi va lazzati, nazokati va qudrati, badali va tuhfalari haqida o’z she’rlarida chuqur falsafiy misralar keltiradi. Ushbu she’rlarni o’qirkansiz, tafakkuringizda she’riyat shoir uchun tuhfami yoki la’natmi deya savollar aylanadi. Shoirilar she’rsiz, ilhomsiz hayotlarini tasavvur qila olishmaydi. Ammo shu she’rlarning yozilishiga sabab bo’lgan ilhomning asl ildizi yurakning chuqur og’riqlariga, hech qachon tilga ko’chmaydigan, ko’ngilning bir burchagida o’z ifodasi uchun ta’sirli jumlar kutib yotgan dardlarga borib taqalsa, bunday ilhomga “tuhfa” deb qarash ne chog’lik to’g’ri bo’ladi!? Albatta bir-birini inkor etuvchi bu ikki savolga shoirilarning o’zlari ham aniq javob ayta olishmaydi. Chunonchi, shoirning ichini kemirgan, uyqu bermagan, halovatga begona qilgan o’sha dardlar she’rga ko’chganda shoir biroz yengillasharkan, unda bu dard u uchun najot sifatlidir.

Shoirqalb insonlar uchun hayot har doim beshafqat va adolatsiz bo’lgan. Chunki ularning hissiyotlari, dunyoga nazarlari oddiy odamlardan farqli bo’ladi. Jamiyatdagi oddiy holatlar ham u uchun fojia, kichik adolatsizlik ham qiyomatdek ta’sir qiladi. Shoir bo’lish — bu hayotni ikki karra his qilish. Bir marta odam sifatida, yana bir marta shoir qalbi bilan. U ruhiy urushlardan tirik qolgan jangchidir. Lekin bu jangda g’alaba yo’q.

Erkin Vohidov shoirning bu ichki kechinmalarini ixcham bir she’r bilan juda go’zal tarzda ifodalaydi:

Shoir qalbi go’yo anor,

¹ Алишер Навоий. “Хайрат ул-аброр”. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989-й

² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. ТЎРТ ТОМЛИК (III том). ТОШКЕНТ: Ўзбекистон ССР «ФАН» нашриёти, 1984-й

³ Алишер Навоий. “Хайрат ул-аброр”. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989-й

She'ri uning sharbatlari.

Bo'lmas ekan she'r ahlining

O'z qalbiga shafqati.

Tinmay ezar, ezar uni,

Ammo shoir biladi –

Piyolasi to'lgan kun

Paymonasi to'ladi.⁴ [3;3]

“She'r dunyosi” saylanmasidan o'rin olgan “Shoir qalbi” nomli she'ri mana shunday chuqur bir falsafiy ruhni mujassamlashtirgan. She'ning mazmun markazini biriktirib turuvchi “Anor” obrazi juda mohirona tanlangan. Anorni siqib uning sharbatini olish xalqning ko'hna bir qadriyati desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu o'quvchi tasavvurida o'ta jonli tarzda gavdalanadi. Uning sharbatidagi qizillik shoirning ezilgan qalbidan chiqqan qon demakdir.

Bor-yo'g'i to'rt baytdan iborat bo'lgan bu she'r shoir xalqining butun boshli umrini tushuntirish uchun yetarlilik go'yo. She'ning uchinchi va to'rtinchi baytlarida keltirilgan tashbehlar she'r dardi ne qadar og'irligini, ammo shoir shu og'riqni o'zi istashi, agarki o'sha og'riq tinari bo'lsa, uning umri poyoniga yetishini ifodalaydi.

She'ning shakli ham soda, ravon, xalqchil tarzda yozilgan. Qofiyalar to'liq bir-biriga mos tushgan va ritm uslubi qisqa turoqlar (4+3) bilan Erkin Vohidovning she'riy dastxatidek namoyon bo'ladi.

Shoir o'zining boshqa bir she'rida esa ilhomning bosqinini o'zga bir majoz bilan qalamga oladi. Xalqimizda ijod dardi to'lg'oq dardiga qiyoslanadi: haddan ortiq azobli, ammo tuhfasini – buyuk ne'mat!

“O'chmas chiroqlar” she'rida Erkin Vohidov:

“Tunlar achchiq-achchiq qahvalar ichib,

Muzdek suvlarga yuz yuvgan ekanmiz.

Yoshlikda muttasil uyqudan kechib

⁴ Эркин ВОҲИДОВ, САЙЛАНМА. ИККИНЧИ ЖИЛД – ШЕЪР ДУНЁСИ. ТОШКЕНТ «ШАРК» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. 2001-й

Uni qaytmas qilib quvgan ekanmiz”⁵ [4;633] – deydi.

Ijod dardi kelsa, yarim tunda bo’lsa-da uyqudan kechmoq lozim. Chunki o’sha lahzada yo’qlagan “mehmon” boshqa qaytib kelmaydi. O’sha oniy bir qisqa fursatda shoir tafakkuriga kelgan misralar, jumlarlar faqatgina o’sha bir necha soniyagagina tegishlidir. “Mezbon” esa buni juda yaxshi biladi. Shuning uchun shoir bunday paytda uyquga imkon berishi, loqaydlik qilishi mumkin emas.

“Mudroq yo’qlamaydi endi bir daf’a,

Arazlagan vujud, ozor chekkan jon.

Yurak xafa, yurak ichra qon xafa,

Orttirgan dardimiz nomi xafaqon”⁶ [4;633] – deya keyingi baytlarini davom ettiradi. Ya’ni, doimiy tarzda ilhom to’lg’og’i tufayli “achchiq qahvalar” va muzdek suvlarga yuz yuv”gan shoirning vujudi uyqusizlikka ko’nikib qoladi. Tanada esa muntazam kam uyqulik tufayli turli sog’likka doir muammolar chiqa boshlashi tabiiy. Buni esa shoir vujudning arazlashi va jonning ozor chekishi deb muqoyasalaydi.

“Ming bu xastaliklar, sanchiq, og’riqlar,

O’sha yuz o’girgan oromdan tortiq.

Endi biz tun bo’yi ichgan dorilar

Umr bo’yi ichgan qahvadan ortiq.”⁷ [4;633]

Bu bayt bilan shoir o’griqlari va xastaliklarining asl sababchisi uni oromga begona qilgan ilhom ekanligiga ishora qilmoqda. Endi yoshlikdagi holatning aksi bo’lib, vujudagi og’riqlardan qutilish va ozroq uxlab olish uchun bir talay dorilarga ehtiyoji bor. Shoirga bunday qismatni “O’sha yuz o’girgan orom” tortiq qilgan.

Baxsh etmoqni istab dillarga ziyo,

Tunlar chirog’imiz o’chmadi, biroq

O’chmaydigan qilib maxshargacha to

⁵Эркин Воҳидов. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. "SHARQ" НАШРИЁТ МАТБАА АКЦИЈАДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. ТОШКЕНТ — 2018-й

⁶Эркин Воҳидов. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. "SHARQ" НАШРИЁТ МАТБАА АКЦИЈАДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. ТОШКЕНТ — 2018-й

⁷Эркин Воҳидов. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. "SHARQ" НАШРИЁТ МАТБАА АКЦИЈАДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. ТОШКЕНТ — 2018-й

Biz o'z boshimizda yoqibmiz chiroq.” ⁸[4;633] – deya she'rni yakunlaydi. Shoirning halovatdan kechib, joniga ming xastaliklar orttirib ijod qilishidan chin maqsadi mana shu yerda ayon bo'ladi. Uning shuncha halovatsizlikni bo'yniga olishi insonlar diliga ziyo solmoq uchun edi. Erkin Vohidov o'z maqsadiga yetgani shaksizdir, ammo shoir buning badalini “ – O'z boshida...” yongan chiroq deya baholaydi. Ya'niki, bu chiroqning o'chib qolmasligi uchun shoir o'z jonini tikmog'i bu qadarning ham jazo ham tuhfasidir.

Erkin Vohidovning yana bir to'rt misrasi bor. Bu to'rt misra o'z hajmidan ko'ra ancha og'ir yuk oladi. “Orzuli dunyo” to'plamidan o'rin olgan “Bedor tunlar” she'ri shoirning ichki hissiyotlari, uning ruhiyati, tafakkuri va tasavvur dunyosi, mutassirlik darajasi haqida so'zlaydi.

“Mijja qoqqani yo'q shoir o'tgan tun,

She'r qoralab, oqqa ko'chirib chiqdi.

Bu kech ham uxlamay, barini butun

Bir satr qoldirmay o'chirib chiqdi.” ⁹ [4;633]

She'rning bori o'zi shu to'rt qator – yigirma ikki so'zdan iborat. Ammo bu so'zlar chamanzordan saralab olingan shunday dilbar va nafis gular kabiki, butun boshli chamanzordan ustun.

She'rning birorta jumlasida yozilgan she'rning mazmuni-yu shoirning kayfiyati, ruhiy holati haqida hech qanday ishora keltirilmagan. Chunki shoir buni o'quvchining tasavvuri va tafakkuriga havola qiladi. Modomiki shoir tunni uyqusiz o'tkazib qalam tebratgan, qalbidagi tuyg'ularni qalam vositasida qog'ozga bayon qilar... ekan, ammo ertasiga yana bedorlik bilan o'tgan tunda yozgan she'rlarini o'chirib chiqar ekan, demak, uning yuragida shu ikki tun kata evrilish sodir bo'lgan. Negaki, har bir she'r shoirning jonidan uzilgan bir bo'lak, yuragining bir qismi, farzandi kabi. Shuning uchun o'zi yozgan she'rlarini “...bir satr qoldirmay” o'chirib tashlashi juda og'ir ruhiy holatdir. Bu evrilishni esa faqat shoirning o'zi his qila olishi mumkin.

Ko'rib chiqqanimizdek, Erkin Vohidov haqiqiy she'riyat fidoiysi, ilhom asiridir. Nafaqat o'zbek xalqi, balki butun dunyoda shoirni hurmat qilishlari bejiz emas. Bugungi zamonaviy adabiyot bo'stonini o'z ijodi bilan oziqlantirgan buyuk chashma Erkin Vohidov nozik falsafiy ifodalari, xalqona ohanglari, hayotiy tasvirlari bilan o'zidan “...maxshargacha so'nmaydigan chiroq” yoqib qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. “Ҳайрат ул-аброр”. Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989-й.

⁸ Эркин Воҳидов. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. "SHARQ" НАМРИЁТ МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. ТОШКЕНТ — 2018-й

⁹ Эркин Воҳидов. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР. "SHARQ" НАМРИЁТ МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. ТОШКЕНТ — 2018-й

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. ТўРТ ТОМЛИК (III том). ТОШКЕНТ: Ўзбекистон ССР «ФАН» нашриёти, 1984-й.
3. Эркин ВОҲИДОВ, САЙЛАНМА. ИККИНЧИ ЖИЛД – ШЕЪР ДУНЁСИ. ТОШКЕНТ «ШАРҚ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2001-й
4. Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. "SHARQ" Нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. ТОШКЕНТ — 2018-й.